



UDK: 159.923.2

Abror XAITOV,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti, mustaqil izlanuvchisi
E-mail: abrorhaitov@mail.ru

QarDU professori, ps.f.d B.Jo'rayev taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF A TEAM CLIMATE FOR SUCCESSFUL WILL-BASED PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF TEENAGE FOOTBALL PLAYERS FOR COMPETITIONS

Annotation

Studying the psychological climate in a sports team during the volitional preparation of young football players for competitions gives effective results. A positive psychological climate in a team of young football players helps players move successfully during competitions and show strong will in difficult situations. The study examined the atmosphere in a youth football team, and also achieved the development of qualities in players such as teamwork, cooperation, efficiency and support, which are important for achieving high results.

Key words: Teenager, football, will, team, atmosphere, success, cooperation, efficiency, determination, perseverance, pursuit of a goal, achievement, patriotism.

ВАЖНОСТЬ КОМАНДНОЙ КЛИМАТ ДЛЯ УСПЕШНОЙ ВОЛЕВОЙ-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ПОДРОСТКОВ-ФУТБОЛИСТОВ К СОРЕВНОВАНИЯМ

Аннотация

Изучение психологической климат в спортивной команде при волевой подготовке юных футболистов к соревнованиям дает эффективные результаты. Положительная психологическая климат в команде юных футболистов помогает игрокам успешно двигаться во время соревнований и проявлять твердую волю в сложных ситуациях. В ходе исследования изучена атмосфера в юношеской футбольной команде, а также достигнуто развитие у игроков таких качеств, как командная работа, сотрудничество, работоспособность и поддержка, которые важны для достижения высоких результатов.

Ключевые слова: Подросток, футбол, воля, команда, атмосфера, успех, сотрудничество, работоспособность, решительность, упорство, стремление к цели, достижение, патриотизм.

O'SMIR FUTBOLCHILARNI MUSOBAQAGA MUVAFFAQIYATLI IRODAVIY-PSIXOLOGIK TAYYORLASHDA JAMOAVIY MUHITNING AHAMIYATI

Annotatsiya

O'smir futbolchilarni musobaqalarga irodaviy tayyorlash jarayonida sport jamoasidagi psixologik muhitni o'rganish samarali natija beradi. O'smir futbolchilar jamoasidagi ijobiy psixologik muhit musobaqa jarayonida futbolchilarning muvaffaqiyatli harakat qilishi, murakkab vaziyatlarda kuchli iroda namoyon etishiga yordam beradi. Tadqiqotda o'smirlar futbol jamoasidagi muhit tadqiq etilib, futbolchilarga yuqori natijaga erishish uchun muhim bo'lgan jamoaviy ravishda muvaffaqiyatga intilish, hamkorlik, samaradorlik, o'zaro qo'llash kabi sifatning rivojlanishiga erishildi.

Kalit so'zlar: O'smir, futbol, iroda, jamoa, muhit, muvaffaqiyat, hamkorlik, samaradorlik, qat'iyat, matonat, maqsadga intilish, muvaffaqiyatga erishish, vatanparvalik.

Kirish. Bugungi kunda futbolga qaratilayotgan yuqori e'tibor natijasida yurtimiz futbolchilari jahon maydonlarida yuqori natijalarni qo'ga kiritib kelmoqda. Futbolni yanada rivojlantirish uchun esa o'smirlar o'rtasida futbolni yanada ommalashtirish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Futbol jamoaviy sport turi ekanligi sababli musobaqa davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hissiyotli vaziyatlarda jamoa a'zolari o'z hissiyatini irodaviy nazorat qilishi, psixik barqarorlikni saqlashi lozim bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sport faoliyatida vaziyatga xos psixologik holatlar ifodalanishi, ayniqsa futbol hissiyotlarga boy sport turi ekanligi bilan ajralib turadi. [2] Futbol o'yini oldidan futbolchilarning holati, raqib jamoaning jismoniy holatini baholash qiyinligi, avvalgi mag'lubiyat yoki g'alaba futbolchilarning psixik barqarorligiga ta'sir etishi kuzatiladi. [6] Futbol o'yini davomida yuzaga kelgan nizoli vaziyat, xususan raqib jamoa futbolchilari bilan nizoga kirish sababli futbolchining maydonni tark etishi kuchli emotsional vaziyatni yuzaga keltiradi. [10] Musobaqa davomida yuzaga

kelgan psixologik holat jamoaning barcha futbolchilariga ta'sir etib, o'yin taktikasi o'zgarishiga olib keladi. [7] Shu sababli musobaqa davomida jamoaning futbolchilari bir-birini yaxshi tushunishi, o'zaro himjihatlikda, jamoaviy ravishda muvaffaqiyatga erishish uchun samarali harakat qilishi lozim. [4] Jamoadagi psixologik muhit, futbolchilarning o'zaro tushunishi va hamkorligi musobaqada g'alabaga erishishning muhim vositasi hisoblanadi. [1]

Tadqiqot metodologiyasi. Futbol jamoasidagi psixologik muhitni ijobiy yo'lga qo'yish, sportchilarni murakkab vaziyatlarda o'zaro qo'llashga o'rgatish va kuchli irodali harakatlarni amalga oshirishini ta'minlash futboldagi muvaffaqiyat zaminini bo'lib xizmat qilishi, [5] futbol o'yinida muvaffaqiyatga erishish uchun maqsadga intiluvchan, qat'iyatli va matonatli bo'lish, [9] muvaffaqiyatga intilish, jamoa va yurt oldidagi burch, vatanparvarlik motivi, [8] futbolchilarning muvaffaqiyatga intilishi va vatanparvar bo'lishida maqsadga intiluvchanlik, qat'iyat, matonat, jur'at, jasorat, sabotlilik

irodaviy sifatlarini tarbiyalash [3] tadqiqotning metodolik asosi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. O'smir futbolchilar jamoasidagi psixologik muhitni aniqlash maqsadida 511 nafar o'smir futbolchilar (tajriba guruhida 276 nafar, nazorat guruhida 235 nafar) ishtirokida tadqiqot tashkil etildi. Tadqiqotda o'smir futbolchilar jamoasidagi muhitni aniqlash uchun "Jamoadagi psixologik muhit" Yu.L. Xanin metodikasi qo'llanildi. Ishirokchilarda jamoaviy psixologik muhitni yaxshilash,

irodani mustahkamlash bo'yicha tajriba guruhida "Jamoaviy muvaffaqiyati uchun kurashimiz" nomli trening dasturi asosida rivojlantiruvchi psixokorreksiya amaliyoti, nazorat guruhi bilan tavsiyaga asoslangan amaliyot tashkil etildi. Tajriba jamoaviy muhitni yaxshilash, irodaviy sifatlarini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishish motivini oshirishga qaratildi. Tajribadan keyin postdiagnostika o'tkazilib, tajribadan oldingi va keyingi natijalar taqqoslandi. (1-jadval)


1-jadval

Jamoadagi psixologik muhit natijalari dinamikasi
N=511/ TG=276, NG=235

shkalalar	TG NG	TO						TK						t
		o'/b	%	q/b	%	m	%	o'/b	%	q/b	%	m	%	
Do'stona	TG	5,3	66,3	6,1	76,3	5,7	71,3	7,2	90,0	7,8	97,5	7,5	93,8	3,14**
	NG	4,8	60,0	5,5	68,8	5,2	64,4	5,0	62,5	5,8	72,5	5,4	67,5	1,35
Hamjihat	TG	4,8	60,0	5,6	70,0	5,2	65,0	6,9	86,3	7,6	95,0	7,3	90,6	3,41***
	NG	5,1	63,8	5,7	71,3	5,4	67,5	5,4	67,5	5,7	71,3	5,6	69,4	1,19
Ijoiy	TG	6,1	76,3	5,6	70,0	5,9	73,1	7,6	95,0	7,2	90,0	7,4	92,5	2,89**
	NG	5,4	67,5	4,8	60,0	5,1	63,8	5,6	70,0	5,1	63,8	5,4	66,9	1,24
Qiziquvchan	TG	5,7	71,3	4,6	57,5	5,2	64,4	7,7	96,3	6,8	85,0	7,3	90,6	3,48***
	NG	4,9	61,3	5,3	66,3	5,1	63,8	5,2	65,0	5,4	67,5	5,3	66,3	1,27
Samaradorlik	TG	4,8	60,0	4,2	52,5	4,5	56,3	7,6	95,0	6,9	86,3	7,3	90,6	4,15***
	NG	5,3	66,3	4,4	55,0	4,9	60,6	5,4	67,5	4,6	57,5	5,0	62,5	1,31
Iliqlik	TG	5,6	70,0	6,3	78,8	6,0	74,4	7,3	91,3	7,7	96,3	7,5	93,8	2,94**
	NG	4,9	61,3	6,1	76,3	5,5	68,8	5,1	63,8	6,2	77,5	5,7	70,6	1,17
Hamkorlik	TG	4,7	58,8	4,2	52,5	4,5	55,6	7,2	90,0	7,4	92,5	7,3	91,3	4,26***
	NG	4,8	60,0	5,1	63,8	5,0	61,9	5,1	63,8	5,3	66,3	5,2	65,0	1,38
O'zaro qo'llash	TG	5,2	65,0	5,8	72,5	5,5	68,8	7,2	90,0	7,5	93,8	7,4	91,9	3,51***
	NG	4,9	61,3	5,6	70,0	5,3	65,6	5,2	65,0	5,8	72,5	5,5	68,8	1,29
Maroqli	TG	4,3	53,8	5,2	65,0	4,8	59,4	6,8	85,0	7,7	96,3	7,3	90,6	3,84***
	NG	4,6	57,5	5,4	67,5	5,0	62,5	4,9	61,3	5,6	70,0	5,3	65,6	1,19
Muvaffaqiyat	TG	4,8	60,0	4,1	51,3	4,5	55,6	7,6	95,0	7,2	90,0	7,4	92,5	4,29***
	NG	4,1	51,3	4,6	57,5	4,4	54,4	4,5	56,3	4,8	60,0	4,7	58,1	1,35
Psixol muhit	TG	51,3	64,1	51,7	64,6	51,5	64,4	73,1	91,4	73,8	92,3	73,5	91,8	3,97***
	NG	48,8	61,0	52,5	65,6	50,7	63,3	51,4	64,3	54,3	67,9	52,9	66,1	1,29

Izoh: **p<0,01; ***p<0,001

O'smir futbolchilar jamoasidagi psixologik muhitni o'rganish uchun o'tkazilgan diagnostik natijalari va psixokorreksiya amaliyotidan keyingi ko'rsatgichlari dinamikasi 1-rasmda diagramma shaklida keltirilgan.



1-rasm. Jamoadagi psixologik muhit natijalari dinamikasi

O'smir futbolchilar jamoasidagi psixologik muhitni yaxshilash uchun o'tkazilgan psixokorreksiya amaliyotidan keyingi (TK) ko'rsatgichlarning tajribadan oldingi (TO) ko'rsatgichlarga nisbatan dinamikasi tahliliga asosan, do'stonalik shkalasi: TGda TO m - 5,7 (71,3%) dan TK m - 7,5 (93,8%) gacha ko'tarilgan; NGda TO m - 5,2 (64,4%) dan TK m - 5,4 (67,4%) ga o'zgargan. Hamjihatlik shkalasi: TGda TO m - 5,2 (65,0%) dan TK m - 7,3 (90,6%) gacha ko'tarilgan; NGda TO m - 5,4 (67,5%) dan TK m - 5,6 (69,4%) ga o'zgargan. Ijoiylik shkalasi: TGda TO m - 5,9 (73,1%) dan TK m - 7,4 (92,5%) gacha ko'tarilgan; NGda TO m - 5,1 (63,8%) dan TK m - 5,4 (66,9%) ga o'zgargan. Qiziquvchanlik shkalasi: TGda TO m - 5,2 (64,4%) dan TK m - 7,3 (90,6%) gacha ko'tarilgan; NGda TO m - 5,1 (63,8%) dan TK m - 5,3 (66,3%) ga o'zgargan. Mahsuldorlik shkalasi: TGda TO m - 4,5 (56,3%) dan TK m - 7,3 (90,6%) gacha ko'tarilgan; NGda TO m - 4,9 (60,6%) dan TK m - 5,0 (62,5%) ga o'zgargan. Iliqlik shkalasi: TGda TO m - 6,0 (74,4%) dan TK m - 7,5 (93,8%) gacha ko'tarilgan; NGda TO m - 5,5 (68,8%) dan TK m - 5,7 (70,6%) ga o'zgargan. Hamkorlik shkalasi: TGda TO m - 4,5 (55,6%) dan TK m - 7,3 (91,3%) gacha ko'tarilgan; NGda TO m - 5,0

(61,9%) dan TK m - 5,2 (65,0%) ga o'zgargan. O'zaro qo'llab-quvvatlash shkalasi: TGda TO m - 5,5 (68,8%) dan TK m - 7,4 (91,9%) gacha ko'tarilgan; NGda TO m - 5,3 (65,6%) dan TK m - 5,5 (68,8%) ga o'zgargan. Maroqlilik shkalasi: TGda TO m - 4,8 (59,4%) dan TK m - 7,3 (90,6%) gacha ko'tarilgan; NGda TO m - 5,0 (62,5%) dan TK m - 5,3 (65,6%) ga o'zgargan. Muvaffaqiyatga erishish shkalasi: TGda TO m - 4,5 (55,6%) dan TK m - 7,4 (92,5%) gacha ko'tarilgan; NGda TO m - 4,4 (54,4%) dan TK m - 4,7 (58,1%) ga o'zgargan. Umumiy psixologik muhit shkalasi: TGda TO m - 51,5 (64,4%) dan TK m - 73,5 (91,8%) gacha ko'tarilgan; NGda TO m - 50,7 (63,3%) dan TK m - 52,9 (66,1%) ga o'zgargan;

Jamoadagi psixologik muhitning ijobiy bo'lishi jamoa sportchilarining irodaviy sifatlarini rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Irodaviy sifatlar murakkab vaziyatlarda ham jamoadagi muhitning barqarorligini saqlashga yordam beradi. Jamoadagi psixologik muhitni ifodalovchi sifatlarini rivojlantirish uchun qaysi irodaviy sifatlar ahamiyatli ekanligini aniqlash muhim bo'lib, ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida korrelyatsion tahlil amalga oshirildi. (2-jadval)

2-jadval

Jamoadagi psixologik muhit sifatleri va irodaviy sifatlarining o'zaro bog'liqligi N=276 (TG)

shkalalar	Maqsadga intiluvchanlik	Qat'iyat, matonat	Jur'at, jasorat	Mustaqillik, tashabbuskorlik	Sabotlilik, o'zini tutish
Do'stona	0,61**	0,53**	0,33**	0,45**	0,57**

Hamjihat	0,72**	0,67**	0,58**	0,31**	0,71**
Ijobiy	0,69**	0,56**	0,46**	0,13	0,67**
Qiziquvchan	0,65**	0,72**	0,63**	0,71**	0,24**
Mahsuldor	0,78**	0,77**	0,72**	0,78**	0,61**
Iliqlik	0,59**	0,43**	0,12	0,48**	0,63**
Hamkorlik	0,79**	0,66**	0,69**	0,72**	0,68**
O'zaro qo'llash	0,74**	0,62**	0,64**	0,59**	0,53**
Maroqli	0,36**	0,17*	0,53**	0,38**	0,65**
Muvaffaqiyat	0,84**	0,75**	0,71**	0,74**	0,76**

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Jamoadagi psixologik muhitni belgilovchi sifatlar va irodaviy sifatlarining o'zaro bog'liqligi tahliliga asosan, jamoadagi do'stonalik munosabati maqsadga intiluvchanlik ($r=0,61$), sabotlilik va o'z- o'zini tuta bilish ($r=0,57$), qat'iyat va matonat ($r=0,53$) irodaviy sifatleri bilan o'rtada darajada bog'liqlikka ega bo'lgan. Jamoadagi hamjihatlik maqsadga intiluvchanlik ($r=0,72$), sabotlilik va o'zini tutish ($r=0,71$) irodaviy sifatleri bilan yuqori darajada, qat'iyat va matonat ($r=0,67$), jur'at va jasorat ($r=0,58$) irodaviy sifatleri bilan o'rtada darajada bog'liqlikka ega bo'lgan. Jamoadagi ijobiylik muhiti maqsadga intiluvchanlik ($r=0,69$), sabotlilik va o'zini tutish ($r=0,67$), qat'iyat va matonat ($r=0,56$) irodaviy sifatleri bilan o'rtada darajada bog'liqlikka ega bo'lgan. Jamoa a'zolarining qiziquvchanligi qat'iyat va matonat ($r=0,72$), mustaqillik va tashabbuskorlik ($r=0,71$) irodaviy sifatleri bilan yuqori darajada, maqsadga intiluvchanlik ($r=0,65$), jur'at va jasorat ($r=0,63$) irodaviy sifatleri bilan o'rtada darajada bog'liqlikka ega bo'lgan.

Jamoaing mahsuldorligi maqsadga intiluvchanlik ($r=0,78$), qat'iyat va matonat ($r=0,77$), jur'at va jasorat ($r=0,72$), mustaqillik va tashabbuskorlik ($r=0,78$) irodaviy sifatleri bilan yuqori darajada, sabotlilik va o'zini tutish ($r=0,61$) irodaviy sifati bilan o'rtada darajada bog'liqlikka ega bo'lgan. Jamoadagi muhitning iliqliqi sabotlilik va o'zini tutish ($r=0,63$), maqsadga intiluvchanlik ($r=0,59$) irodaviy sifati bilan o'rtada darajada bog'liqlikka ega bo'lgan. Jamoadagi hamkorlik maqsadga

intiluvchanlik ($r=0,79$), mustaqillik va tashabbuskorlik ($r=0,72$) irodaviy sifatleri bilan yuqori darajada, qat'iyat va matonat ($r=0,66$), jur'at va jasorat ($r=0,69$), sabotlilik va o'zini tutish ($r=0,68$) irodaviy sifati bilan o'rtada darajada bog'liqlikka ega bo'lgan. Jamoadagi o'zaro qo'llash sifati maqsadga intiluvchanlik ($r=0,74$) irodaviy sifati bilan yuqori darajada, qat'iyat va matonat ($r=0,62$), jur'at va jasorat ($r=0,64$), mustaqillik va tashabbuskorlik ($r=0,59$), sabotlilik va o'zini tutish ($r=0,53$) irodaviy sifati bilan o'rtada darajada bog'liqlikka ega bo'lgan. Jamoadagi maroqli holati sabotlilik va o'zini tutish ($r=0,65$), jur'at va jasorat ($r=0,53$) irodaviy sifati bilan o'rtada darajada bog'liqlikka ega bo'lgan. Jamoaing muvaffaqiyatga erishishi maqsadga intiluvchanlik ($r=0,84$), sabotlilik va o'zini tutish ($r=0,76$), qat'iyat va matonat ($r=0,75$), mustaqillik va tashabbuskorlik ($r=0,74$) jur'at va jasorat ($r=0,71$) irodaviy sifatleri bilan yuqori darajada bog'liqlikka ega bo'lgan.

Jamoadagi psixologik muhitni ifodalovchi sifatlarining namoyon bo'lish darajasi sportchilarning faoliyat motivatsiyasiga ta'sir etadi. Sportchilarning musobaqa jarayonida g'alaba uchun intilishi jamoadagi hamkorlik asosida faoliyat tashkil etilishiga bog'liq holda kechadi. Sportchilarning muvaffaqiyatga intilishida jamoadagi muhitni belgilovchi qaysi sifatlar bog'liq ekanligini aniqlash uchun korrelyatsion tahlil amalga oshirildi. (3-jadval)

3-jadval

Jamoadagi psixologik muhit sifatleri va sport faoliyat motivlari o'zaro bog'liqligi N=276 (TG)

shkalalar	Emosional zavqlanish	Ijtimoiy o'zini-o'zini tasdiqlash	Jismoniy o'zini-o'zini tasdiqlash	Ijtimoiy-emosional	Ijtimoiy-axloqiy	Muvaffaqiyatga erishish	Sport bilish	Rasional- rekreativ	Kasbiy faoliyat	Fuqarolik-vatanparvarlik
Do'stona	0,64**	0,12	0,28**	0,47**	0,65**	0,59**	0,13	0,31**	0,11	0,54**
Hamjihat	0,53**	0,16*	0,31**	0,41**	0,67**	0,52**	0,46**	0,27**	0,29**	0,51**
Ijobiy	0,62**	0,28**	0,26**	0,26**	0,58**	0,53**	0,34**	0,12	0,16*	0,63**
Qiziquvchan	0,57**	0,59**	0,55**	0,24**	0,11	0,71**	0,67**	0,56**	0,57**	0,56**
Mahsuldor	0,35**	0,62**	0,53**	0,15*	0,52**	0,73**	0,64**	0,54**	0,61**	0,72**
Iliqlik	0,59**	0,24**	0,15*	0,37**	0,47**	0,48**	0,31**	0,34**	0,24**	0,45**
Hamkorlik	0,47**	0,16*	0,29**	0,64**	0,56**	0,75**	0,68**	0,42**	0,22**	0,74**
O'zaro qo'llash	0,61**	0,31**	0,31**	0,52**	0,68**	0,69**	0,41**	0,18**	0,29**	0,67**
Maroqli	0,63**	0,26**	0,32**	0,58**	0,55**	0,17*	0,15*	0,27**	0,19**	0,31**
Muvaffaqiyat	0,53**	0,54**	0,64**	0,48**	0,63**	0,86**	0,57**	0,58**	0,35**	0,83**

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Jamoadagi psixologik muhitni belgilovchi sifatlar va sport faoliyati bilan shug'ullanishning asosiy motivlari o'rtasidagi bog'liqlik tahliliga asosan, jamoadagi do'stonalik munosabati ijtimoiy-axloqiy ($r=0,65$), emosional zavqlanish ($r=0,64$), muvaffaqiyatga erishish ($r=0,59$), fuqarolik-vatanparvarlik ($r=0,54$) motivlari bilan o'rtada darajada bog'liqlikka ega. Jamoadagi hamjihatlik ijtimoiy-axloqiy ($r=0,67$), emosional zavqlanish ($r=0,53$), muvaffaqiyatga erishish ($r=0,52$), fuqarolik-vatanparvarlik ($r=0,51$) motivlari bilan o'rtada darajada bog'liqlikka ega. Jamoadagi ijobiylik muhiti fuqarolik-vatanparvarlik ($r=0,63$), emosional zavqlanish ($r=0,62$), ijtimoiy-axloqiy ($r=0,58$), muvaffaqiyatga erishish ($r=0,53$) motivlari bilan o'rtada darajada bog'liqlikka ega. Jamoa a'zolarining qiziquvchanligi muvaffaqiyatga erishish ($r=0,71$) motivi bilan yuqori, sport bilish ($r=0,67$), ijtimoiy o'zini tasdiqlash ($r=0,59$), emosional zavqlanish ($r=0,57$), kasbiy

faoliyat ($r=0,57$), rasional-rekreativ ($r=0,56$), fuqarolik-vatanparvarlik ($r=0,56$), jismoniy o'zini tasdiqlash ($r=0,55$) motivlari bilan o'rtada darajada bog'liqlikka ega. Jamoaing mahsuldorligi muvaffaqiyatga erishish ($r=0,73$), fuqarolik-vatanparvarlik ($r=0,72$) motivi bilan yuqori, sport bilish ($r=0,64$), ijtimoiy o'zini tasdiqlash ($r=0,62$), kasbiy faoliyat ($r=0,61$), rasional-rekreativ ($r=0,54$), jismoniy o'zini tasdiqlash ($r=0,53$), ijtimoiy-axloqiy ($r=0,52$) motivlari bilan o'rtada darajada bog'liqlikka ega.

Jamoadagi muhitning iliqliqi emosional zavqlanish ($r=0,59$) motivi bilan o'rtada darajada, muvaffaqiyatga erishish ($r=0,48$), ijtimoiy-axloqiy ($r=0,47$), fuqarolik-vatanparvarlik ($r=0,45$) motivlari bilan ahamiyatli bog'liqlikka ega. Jamoadagi muhitning iliqliqi emosional zavqlanish ($r=0,59$) motivi bilan o'rtada darajada, muvaffaqiyatga erishish ($r=0,48$), ijtimoiy-axloqiy ($r=0,47$), fuqarolik-vatanparvarlik ($r=0,45$) motivlari

bilan ahamiyatli bog'liqlikka ega. Jamoadagi hamkorlik muvaffaqiyatga erishish ($r=0,75$), fuqarolik-vatanparvarlik ($r=0,74$) motivlari bilan yuqori, sport bilish ($r=0,68$), ijtimoiy-emosional ($r=0,64$), ijtimoiy-axloqiy ($r=0,56$) motivlari bilan o'rta darajada bog'liqlikka ega. Jamoadagi o'zaro qo'llash sifati muvaffaqiyatga erishish ($r=0,69$), ijtimoiy-axloqiy ($r=0,68$), fuqarolik-vatanparvarlik ($r=0,67$), emosional zavqlanish ($r=0,61$), ijtimoiy-emosional ($r=0,52$) motivlari bilan o'rta darajada bog'liqlikka ega. Jamoadagi maroqlilik holati emosional zavqlanish ($r=0,63$), ijtimoiy-emosional ($r=0,58$), ijtimoiy-axloqiy ($r=0,65$) motivlari bilan o'rta darajada bog'liqlikka ega. Jamoaning muvaffaqiyatga erishishi muvaffaqiyatga erishish ($r=0,86$), fuqarolik-vatanparvarlik ($r=0,83$) motivlari bilan yuqori, jismoniy o'zini tasdiqlash ($r=0,64$), ijtimoiy-axloqiy ($r=0,52$), ijtimoiy-axloqiy ($r=0,63$), rasional-rekreativ ($r=0,58$), sport bilish ($r=0,57$), ijtimoiy o'zini tasdiqlash ($r=0,54$), emosional zavqlanish ($r=0,53$) motivlari bilan o'rta darajada bog'liqlikka ega.

Xulosa. O'smir futbolchilarni musobaqaga irodaviy tayyorlash jarayoni jamoadagi psixologik muhitni ijobiy ekanligiga e'tibor qaratishni talab qiladi. Jamoaning hamkorlikdagi harakati, muvaffaqiyatga erishishi,

samaradorligi, o'zaro qo'llashi sportchilarning maqsadga intiluvchanlik, qat'iyat, matonat, sabotli bo'lish, murakkab vaziyatlarda jur'atli bo'lish kabi irodaviy sifatlariga bog'liq ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga o'smir futbolchilarning faoliyat motivatsiyasi yuzaga kelishi jamoaviy muhitga bog'liq ekanligi, xususan sportchilarning yuqori natijalarga erishishida asosiy motivlar hisoblangan muvaffaqiyatga intilish, fuqarolik-vatanparvarlik motivlari jamoaviy muhitni ifodalovchi muvaffaqiyatga erishish, hamkorlik, samaradorlik, qiziquvchanlik sifatleri bilan bog'liq ekanligi tahlil qilindi.

Tavsiya: Futbol jamoaviy sport turi ekanligini e'tiborga olib futbolchilarni musobaqalarga muvaffaqiyatli tayyorlash maqsadida jamoada ijobiy munosabatlarni shakllantirish lozim. Musobaqa jarayonida g'alaba qozonish jamoaning hamkorlikdagi harakati, muvaffaqiyatga intilishi, samaradorligi, o'zaro qo'llashiga bog'liq bo'lib, o'smir futbolchilarda ushbu jamoaviylik sifatlarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Jamoadagi psixologik muhit sportchilarning maqsadga intiluvchanlik, qat'iyat, matonat, sabotli bo'lish, murakkab vaziyatlarda jur'atli bo'lish kabi irodaviy sifatlariga bog'liq ekanligi sababli o'smir futbolchilarda irodaviy sifatlarining rivojlantirilishiga ustuvorlik berilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Gapparov Z.G. Sport psixologiyasi. Darslik. – T.: “O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi”, 2021. – 300 b.
2. Arziqulov D.N., Gapparov Z.G. Psixologiya va sport psixologiyasi. Darslik. – T.: “O'zkitobsavdonashriyoti” NMIU, 2021. – 408 b.
3. Ильин Е.П. Психология спорта. СПб., Питер. ООО «Питер Пресс» 2008. 352 с.
4. Родионов В. А., Родионов А. В., Сивицкий В. Г. Спортивная психология: учебник для академического бакалавриата. – М. ; И здательство Юрайт, 2018. - 367 с.
5. Огородова Т.В. Психология спорта: учеб. пособие. Яросл. гос. ун-т им. П. Г. Демидова. - Ярославль : ЯрГУ, 2013. - 120 с.
6. Сопов В.Ф. Теория и методика психологической подготовки в современном спорте. Методическое пособие. М. 2010. 118 с.
7. Xaitov A.U. Sport psixodiagnostikasi va psixokorreksiya. Darslik. - T.: “O'zkitobsavdonashriyoti”, 2020. – 343 b.
8. Xaitov A.U. O'smir futbolchilarning irodaviy sifatlar asosida sport faoliyati motivlari yuzaga kelishi. Fan va jamiyat. Nukus 2024. №4/2. 102-104-b.
9. Xaitov A.U. O'smir futbochilar irodaviy sifatlarini rivojlantirishning psixologik asoslari. Maktab va hayot. Toshkent 2023. №5. 25-27-b.
10. Бабушкин Г.Д., Смоленцева В.Н. Психология физической культуры и спорта : учебник для высших физкультурных учебных заведений. – Омск : СибГУФК, 2007. – 270 с